



AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Z.B.Saydullaxonov

TDPU tyutori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7234653>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

Akme, akmeologik yondashuv, akmeologiya, loyihaviy faoliyat, loyiha texnologiyasi, ilg'or xorijiy tajribalar, bo'lajak o'qituvchi.

ABSTRACT

Bugungi kunda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada shu kabi dolzarb masalalar yoritilgan bo'lib, respublikamizning faoliyat olib borayotgan barcha pedagoglar shu maqoladan nazariy manbaa sifatida foydalanishlari mumkin.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda. Bunda innovatsion texnologiyalar qatoridan o'rin olgan loyihalash texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonini loyihalash, bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha olib

borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoniga tatbiq etilmoqda. Respublikamizda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar, bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalashga tayyorlashning didaktik xususiyatlarini belgilash, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid kompetensiyalarini rivojlantirish hamda oliy ta'lim amaliyotida foydalanishga oid ilmiy-nazariy tavsiyalar yaratishni taqozo etmoqda. Jahonning yetakchi ta'lim



muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'limni rivojlantirish markazlari va laboratoriyalarda olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularning innovatsion, kreativ salohiyatini oshirish, egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida bo'lg'usi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'ladigan loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, AQShning Massachusetts texnologiya instituti, Princeton universiteti, Yaponiyaning Xamaki universitetida ta'lim jarayonini loyihalash va bo'lajak mutaxassislarni muayyan kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, Xitoyning Pekin universiteti, Janubiy Koreyaning Seul milliy universitetida yuqori kasbiy yetuklikka erishish jarayonida milliy etnopedagogik va psixologik qadriyatlarining ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonini loyihalash, bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoniga tatbiq etilmoqda. Respublikamizda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"] masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va

rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar, bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalashga tayyorlashning didaktik xususiyatlarini belgilash, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid kompetentsiyalarini rivojlantirish hamda oliy ta'lim amaliyotida foydalanishga oid ilmiy-nazariy tavsiyalar yaratishni taqozo etmoqda

Ta'limning mazmunini akmeologik yondashuv asosida modernizatsiyalashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad jarayon sub'ektlarining pedagogik tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Bu ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatning bir cho'qqisidan ikkinchisiga qarab harakatlanishlari, yetuklikning turli darajalarida mahorat cho'qqisiga erishishlari, sog'lom fikrlashlari va ijodiy kasbiy faoliyat ko'rsatish tajribasini egallashlari uchun muhim hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida pedagogika turkum fanlariga oid o'quv jarayoni mazmunini boyitish alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayon mazmuniga kiritiladigan bilimlar, tushunchalarni tanlashda, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma va umumiy o'rta ta'lim tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqish talab etiladi.

Professor-o'qituvchilar talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlash uchun jarayonning asosiy va oraliq maqsadlarini yaxshi bilishlari hamda ta'lim jarayonini tashkil etish tajribasini talabalarga taqdim etishda ijtimoiy pedagogik ehtiyojlarni hisobga olishlari talab etiladi.



Bo'lajak o'qituvchilarning loyihaviy faoliyatga tayyorlashva tashkil etishga oid kasbiy bilimlar va pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishlari, ularning bilish faoliyatlari va kasbiy mustaqilliklari, pedagogik faoliyat madaniyatini egallashga intilishlari ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olish kompetensiyalarini egallash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish ko'nikmalarining mavjud darajalarini aniqlashda professor-o'qituvchilar tashxislash turlarini bilishlari va uni amalga oshirishda muayyan prinsiplarga amal qilishlari talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalashga oid ko'nikmalari mavjud darajasini tashxislash – pedagogik jarayon sifati va samaradorligini baholash, talabalarining kasbiy rivojlantirish dasturiga muntazam tuzatishlar kiritish, ta'lim konsepsiyasini o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish va bu jarayonning mazmunini aniqlash asosida o'quv dasturlari, o'quv uslubiy majmualari va ish rejasini mazmunan boyitish imkonini beradi.

Har bir talabada hosil bo'lgan kasbiy innovatsion faoliyat darajasi va mazmunini tahlil qilish uzluksiz pedagogik jarayon davomida amalga oshirilishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish ko'nikmalarining mavjud darajasini tashxislash jarayoni barcha talabalarni to'liq qamrab olishi va kasbiy innovatsion faoliyat taraqqiyotining muayyan parametrlari bo'yicha tizimli tashxislash usullari va yo'llarini qo'llashga erishish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etishga oid ko'nikmalari darajasini o'rganish doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda

qo'llaniladigan metodlar bir necha guruhlarga bo'linadi. Ular: kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar; kasbiy pedagogik faoliyatni tashxislash metodlari (miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida); tadqiqotchilik metodlari; bunday metodlardan bo'lajak o'qituvchilarning ruhiy holatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi; bo'lajak o'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatlari rivojlanishini aniqlash maqsadida shakllantiruvchi metodlardan ham foydalaniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning loyihaviy faoliyatga tayyorlash va tashkil etishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Loyihaviy faoliyatga tayyorlash va uni samarali tashkil etishga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash hamda ularni akmeologik yondashuv asosida ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogika fanida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash muammosi nazariy-emperik jihatdan o'z yechimini topmagan. Shunga ko'ra loyihaviy faoliyatga tayyorlashva uni tashkil etishga bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida tayyorlashning shart-sharoitlari, bu jarayonning mazmuni, shakllari, usullari, metodlari, mexanizmlarini aniqlash kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga qaratilgan pedagogik faoliyat o'zining didaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur xususiyatlarni aniqlash orqali bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirish imkoniyati



vujudga keladi. Akmeologik yondashuv asosida loyihaviy faoliyatga tayyorlash o'qituvchining kasbiy vazifalari sirasiga kirib, talabalarni bunday jarayonga tayyorlash uchun ularni nazariy jihatdan qurollantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlillarimiz natijasida ayon bo'ldi. Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo'lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta'limotlarni to'plash, tahlil etish asosida ishlab chiqilgan nazariy-metodik tavsiyalarni oliy pedagogik ta'lim tizimiga joriy etish maqsadida muayyan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish zaruriyatining mavjudligi aniqlandi.

Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo'llashga oid ilmiy nazariy yondashuvlar va xorijiy tajribalar salmoqli darajada mavjud bo'lsa-da, ularni akmeologik yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalashga tayyorlashning nazariy asoslari yoritilmagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda tajriba-sinovdan o'tkazilayotgan "Ustoz-shogird maktablari" mazkur tajribalarni ma'lum darajada o'zida mujassamlashtirmoqda. Biroq, "Ustoz-shogird maktablari" uchun maxsus dasturlar yaratish hamda bu dasturlarni Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiyadagi o'qituvchilarni tayyorlash va ularni shakllantirish sohasidagi ilg'or tajribalar bilan boyitish davr talabiga aylanmoqda.

Dars loyihasi – o'qituvchi ijodiy izlanishining dastlabki ko'rinishi bo'lib, o'quv jarayonini samarali tashkil etish vositasi hisoblanadi. Loyihada o'qituvchining fikrlari, g'oyalari, qarashlari, yondashuvlari, iqtidori, layoqatlari o'z ifodasini topadi. O'qituvchi dars loyihasini

tuzish, o'quv jarayonining tarkibi va mazmunini aniqlashga ijodiy yondashishi lozim. Shundagina u darsda amalga oshiradigan vazifalarini aniq tasavvur eta oladi. Bo'lajak o'qituvchilarni darsni loyihalashtirishga tayyorlash uchun nafaqat ularni o'quv materiallarini batafsil tahlil qilish, balki mavzuni o'rganish bosqichlaridan kelib chiqqan holda uni tarkiblashtirish, kutilayotgan savollar va javoblarni aniqlash, o'quv materiallari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga odatlantirish talab etiladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida pedagogika turkum fanlariga oid o'quv jarayoni mazmunini boyitish alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayon mazmuniga kiritiladigan bilimlar, tushunchalarni tanlashda, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma va umumiy o'rta ta'lim tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqish taqozo qilinadi. Shunga ko'ra, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va uni tashkil etish ko'nikmalarining mavjud darajalarini aniqlashda professor-o'qituvchilar tashxislashning turlarini bilishlari va uni amalga oshirishda muayyan prinsiplarga amal qilishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalashga oid ko'nikmalari mavjud darajasini tashxislash maqsadi – talabalarning kasbiy tayyorgarliklarini ta'minlash dasturi va shu yo'nalishdagi ish rejasini tuzish uchun ularning mavjud bilimlarini aniqlashdan iborat.



Har bir talabada hosil bo'lgan didaktik loyihalash ko'nikmalari darajasi va mazmunini tahlil qilish uzluksiz pedagogik jarayon davomida amalga oshirilishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish ko'nikmalarining mavjud darajasini tashxislash jarayoni barcha talabalarni to'liq qamrab olishi va kasbiy innovatsion faoliyat taraqqiyotining muayyan parametrlari bo'yicha tizimli tashxislash usullari va yo'llarini qo'llashga erishish imkonini berishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etishga oid ko'nikmalari darajasini o'rganish doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda qo'llaniladigan metodlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Ular: kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar; kasbiy pedagogik faoliyatni tashxislash metodlari (miqdor

ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida); tadqiqotchilik metodlari, bunday metodlardan bo'lajak o'qituvchilarning ruhiy holatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi; bo'lajak o'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatlari rivojlanishini aniqlash maqsadida shakllantiruvchi metodlardan foydalaniladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda o'qituvchilarning kasbiy bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni didaktik jarayonlarni loyihalashga tayyorlash bosqichlari alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashning nazariy konseptual asoslari, amaliy jihatlari, didaktik loyihalarning tarkibi, didaktik loyihalarni modellashtirishga oid bilimlar bilan qurollantirilishlari tilab etiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. O'RQ-637-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)//«Xalq so'zi» gaz. 2017-yil, 8-fevraldagi 28-(6722)-son.
3. 2020-yil 24-iyuldagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 2936-sonli qarori Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020-y., 10/20/2936-1/1107-son
4. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi, 2000.
5. Azizzodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassislarni tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000.
6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999.